

## JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHISHDA ICHKI ISHLAR ORGANLARINING O'RNI.

**Axmedov Farxod Saydaliyevich**

*Malaka oshirish instituti Kasbiy tayyorgarlik fakulteti*

*Maxsus fanlar sikli o'qituvchisi, podpolkovnik*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlarining o'rni, ularni barvaqt oldini olish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan unumli foydalanish, «Xavfsiz shahar», «Xavfsiz xonodon», «Xavfsiz hovli» «Xavfsiz turizm» kabi huquqbazarliklarning oldini olishning innovatsion g'oyalarini o'z ichiga olgan konsepsiylar hayotga tatbiq etish, jinoyatchilikka emas, balki uning sabablariga qarshi kurashish, huquqbazarlik va jinoyatchilikni barvaqt oldini olish borasida amalga oshirilishi zarur bo'lgan chora-tadbirlar yoritilib, faoliyatiga ta'lluqli taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** «Xavfsiz shahar», «Xavfsiz xonodon», «Xavfsiz hovli» «Xavfsiz turizm», huquqbazarlik, jinoyatni oldini olish, profilaktika.

Mamlakatimizda so'nggi yillarda o'tkazilgan islohotlar natijasida jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbazarliklarga qarshi kurashishda yangi ish uslublari tatbiq qilinib, aholi va jamoatchilik bilan uzviy muloqot yo'lga qo'yildi, ushbu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ham keng joriy etildi.

Jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbazarliklarga qarshi kurashishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari o'rtasida hamkorlik yanada kuchaytirildi. Olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar natijasida fuqarolarda jinoyatchilikka qarshi kurashishga va huquqbazarliklarning barvaqt oldini olishga daxldorlik hissi shakllandi.

«Xavfsiz shahar», «Xavfsiz xonodon», «Xavfsiz hovli» «Xavfsiz turizm» kabi huquqbazarliklarning oldini olishning innovatsion g'oyalarini o'z ichiga olgan konsepsiylar hayotga tatbiq etildi. Eng asosiysi, bu soha huquqbazarliklarning oqibati bilan kurashish emas, balki ularning oldini olish zarurligi haqidagi hayotiy tamoyil asosida isloh qilinmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlashga mas'ul tuzilma – Milliy gvardiya tashkil etildi va uning vakolatlari belgilandi.

Jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlari muhim rol o‘ynaydi. Ushbu organlar jamiyatda tartibni saqlash, huquqbuzarliklarning oldini olish va jinoyatlarni fosh etish bo‘yicha bir qator vazifalarni bajaradi.

Jinoyatlarni oldini olishda: Ichki ishlar organlari jinoyatlarning oldini olishga alohida e’tibor qaratadilar. Buning uchun ular jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni, harbiy va jinoiy tuzilmalarni tahlil qiladi. Ular profilaktik tadbirlar olib boradi, ya’ni, jinoyatlarni sodir etish ehtimolini kamaytirish maqsadida turli kurslar, seminarlar tashkil etish va huquqiy targ‘ibotni amalga oshirish ishlarini olib borishadi.

Jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda: Ichki ishlar organlarining asosiy vazifalaridan biri — sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish. Buning uchun jinoyat ishlari bo‘yicha jamoatchilik bilan hamkorlik qilish, ularning signallarini eshitish va mahalliy darajadagi axborot to‘plashda samaradorlikni oshirish kerak.

Qonunchilikka amal qilishda: Ichki ishlar organlari jinoyatchilikka qarshi kurashishda faqat qonunlar va me’yorlarga amal qilib, jinoyatlarning oldini olish va tergov qilishda muammolarni hal qiladilar. Ushbu organlar qonunlarni o‘z vaqtida va to‘g‘ri tatbiq etish bilan jinoyatlarning kamayishini ta’minlaydi.

Jamoatchilik bilan hamkorlik: Jinoyatchilikka qarshi kurashishda ichki ishlar organlari jamoatchilik bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishlari zarur. Turli tadbirlar, yuritilgan dasturlar orqali, jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish va huquqbuzarliklariga qarshi turish muhimdir.

Ixtilofli vaziyatlarda harbiy va maxsus kuchlar bilan hamkorlik: Aynan katta yoki harbiy jinoyatlarga qarshi kurashishda ichki ishlar organlari o‘z ishini professional harbiy va maxsus kuchlar bilan hamkorlikda amalga oshiradilar.

Ichki ishlar, Davlat xavfsizlik xizmati, prokuratura organlari tubdan takomillashtirildi, bu jarayon izchil davom etmoqda. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda jamoat tashkilotlari o‘rtasidagi hamkorlik kuchaytirildi, mahalliy ijroiya hokimiyyati organlarining jinoyatchilikka qarshi kurash borasida mas’uliyati oshirildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev “Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi”ga bag‘ishlangan yig‘ilishda “Mening mahallamda jinoyat sodir bo‘lmasi ligi kerak”, degan

tuyg‘uni har bir fuqaro, ayniqsa, yoshlar ongida shakllantirish, befarqlik, loqaydlikka barham berish, pirovardida, har bir oila, ta’lim muassasasi, har bir mahallani jinoyatchilikdan xoli hududga aylantirish, jamiyatda tinch va osoyishta hayotni ta’minalashning muhim shartidir”<sup>1</sup> deya ta’kidladi.

Jinoyatlarning barvaqt oldini olish va huquqbazarliklarga qarshi kurashish borasidagi faoliyatda echimini kutayotgan xato va kamchiliklar hamda foydalanimayotgan imkoniyatlar mavjud.

Bugun jinoyatchilikka emas, balki uning sabablariga qarshi kurashish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ichki ishlar organlari xodimlari huquqbazarlik va jinoyatchilikni oldini olish borasida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirishi zarur;

birinchidan, tashkilot va korxonalarda, mahallalarda, o‘quv yurtlarida, ommaviy axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlarda jinoyat sodir etilishini oldini olish maqsadida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish;

ikkinchidan, sodir etilgan jinoyatlarning asl omillarini aniqlash;

uchinchidan, ishsizlarni tegishli mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda ishga joylashtirish choralarini ko‘rish;

to‘rinchidan, tungi vaqtarda aholi yashash punktlarining yoritilishi va video kuzatuv qamrovini kengaytirish;

beshinchidan, alkogolli ichimlikka ruju qo‘yan, giyohvand, zaharvand, tajovuzkor ruhiy kasal shaxslarni majburiy davolash bo‘yicha ishlarni samarali tashkil etish;

oltinchidan, qotillik aksariyat hollarda oila va oddiy maishiy munosabatlar zamirida kelib chiqayotgani sababli profilaktika inspektorlari hamda inspektor psixologlar bilan birgalikda biriktirilgan xududida oilalarda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish;

ettinchidan, muqaddam sudlangan shaxslar, ma’muriy nazoratga olingan shaxslar tomonidan jinoyat sodir etilishining oldini olishga qaratilgan profilaktik tadbirlarni ta’sirchan o‘tkazish;

---

<sup>1</sup> Shavkat Mirziyoyevning “Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbazarliklarning oldini olishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi”ga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqidan. 2021-yil noyabr.

sakkizinchidan, kriminogen vaziyati og‘ir va aholisi ko‘p mahallalarga huquqiy sohada etarli bilim va tajribaga ega xodimlarni profilaktika inspektori lavozimiga tayinlash;

to‘qqizinchidan, tezkor-qidiruv xodimi va profilaktika inspektorlarini bir xududda besh yil muddatda xizmat olib borishini ta’minlash va uni bajarilishini nazorat qilish;

o‘ninchidan, sodir etilgan jinoyatlarni fosh etishda huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

o‘n birinchidan, mahallalarda, jamoat va ommaviy tadbirlar o‘tkaziladigan joylarda, mehmonxonalarda, bozorlarda keng omma to‘planadigan istirohat bog‘larida, yirik sport majmualarida xavfsizlikni va jamoat tartibini saqlash borasida mahalliy hokimiyat idoralari va ichki ishlar organlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish;

o‘n ikkinchidan, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olishda aholining huquqiy madaniyatini oshirish

o‘n uchinchidan, mahalla faollari, jamoat tashkilotlari va profilaktika inspektorlari tomonidan notinch va noqobil oilalarni, o‘z vaqtida aniqlash, ularning manzilli ro‘yxatlarini tuzish, oiladagi ma’naviy-ahloqiy muhitni sog‘lomlashtirishga qaratilgan ishlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish;

o‘n to‘rtinchidan, sodir bo‘lgan har bir jinoyatni avvalo, jinoyat sodir bo‘lgan va jinoyat sodir qilgan shaxsning yashash joyidagi mahallalarda keng jamoatchilikni jalgan holda muhokama qilish;

o‘n beshinchidan, boshqa hududdan kelib jinoyat sodir etgan fuqarolarning qilmishlari haqida ularning yashash joylariga xabar berish amaliyotini joriy etish;

o‘n oltinchidan, ta’lim muassasalari o‘quvchilarining dars vaqtida bozorlar, savdo markazlari, hiyobonlar va ko‘ngilochish joylarida bo‘lishini oldini olish borasida muntazam ravishda tadbirlar o‘tkazish;

o‘n ettinchidan, ommaviy axborot vositalari, telekommunikatsiya tarmoqlari va Internet tarmog‘idan foydalangan holda ijtimoiy-siyosiy vaziyatni beqarorlashtirish, shuningdek, ichki ishlar organlari xodimlarini obro‘sizlantirish holatlarining oldini olish.

Ichki ishlar organlari o‘z vakolatlari doirasida quyidagi huquqlarga ega:

fuqarolardan qonun hujjatlariga rioya etishni, g‘ayriqonuniy xatti-harakatlarni tugatishni talab qilish, bu talablar bajarilmagan taqdirda esa majburlov choralarini qo‘llash;

o‘z xizmat majburiyatlarini amalga oshirish chog‘ida fuqarolarning shaxsini tasdiqlaydigan hujjatlarini tekshirish, agar ularda qurol, o‘q-dorilar, portlovchi, radioaktiv yoki zaharli moddalar, portlatish qurilmalari, pirotexnika buyumlari, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar, ularning prekursorlari yoxud muomalada bo‘lishi taqiqlangan yoki cheklangan boshqa narsalar bor deb hisoblashga asoslar mavjud bo‘lganda esa, fuqarolarni shaxsiy ko‘rikdan o‘tkazishni, ularning ashyolarini, qo‘l yukini, bagajini ko‘rikdan o‘tkazishni amalga oshirish hamda mazkur narsalar, vositalarni va moddalarni olib yurish hamda saqlash uchun qonuniy asoslar mavjud bo‘lmasdan taqdirda ularni olib qo‘yish;

agar tergovga qadar va tergov harakatlarini, tezkor-qidiruv va qidiruv tadbirlarini o‘tkazish, jinoyat, ma’muriy huquqbazarlik, hodisa holatlarini hujjatlashtirish yoki jinoyat, ma’muriy huquqbazarlik izlarini, hodisa holatlarini saqlab qolish uchun zarur bo‘lsa, fuqarolardan jinoyat, ma’muriy huquqbazarlik sodir etilgan joyni, hodisa joyini tark etishni talab qilish;

sodir etilayotgan jinoyatlarga chek qo‘yish, shuningdek ularni sodir etayotgan shaxslarni ta’qib qilish hamda ushslash uchun, agar buning kechiktirilishi fuqarolarning hayoti va sog‘lig‘ini, jamiyat va davlat xavfsizligini tahdid ostiga qo‘yishi mumkin bo‘lsa, tashkilotlar va fuqarolarning hududiga, turar joylariga va boshqa binolariga, er uchastkalariga, transport vositalariga sutkaning istalgan vaqtida to‘sqiniksiz kirish (oshib tushish);

fuqarolarning shaxsiy xavfsizligi va jamoat xavfsizligini ta’minlash, jinoyatlarning oldini olish, ularni sodir etgan yoki qidiruvda bo‘lgan shaxslarni aniqlash hamda ushslash maqsadida fuqarolarga tegishli bo‘lgan turar joylarda va boshqa binolarda, ularga qarashli er uchastkalarida fuqarolarning roziligi bilan, tashkilotlar joylashgan hududda va binolarda ularning ma’muriyati ruxsati bilan yoki mulkdorning roziligi bilan bo‘lish;

fuqarolarni ularning roziligi bilan hamkorlikka jalb etish, jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlashda ichki ishlar organlariga yordam bergan hamda alohida xizmat ko'rsatgan fuqarolarni taqdirlash;

huquqbazarliklarni, shuningdek ularning sabablarini va sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlarni bartaraf etish to'g'risida davlat organlariga, boshqa tashkilotlarga yoki mansabdor shaxslarga bajarilishi shart bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

jinoyatlarning va boshqa huquqbazarliklarning oldini olish hamda ularni fosh etish maqsadida zarur ma'lumotlar bazalariga ega bo'lgan axborot tizimlarini texnik va maxsus vositalardan foydalangan holda yaratish;

ma'muriy huquqbazarliklar sodir etgan shaxslarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ushslash va ichki ishlar organlariga olib borish;

qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda transport vositalarini va shaxslarni ushslashni, ko'rikdan o'tkazishni amalga oshirish, shaxslarni transport vositasini boshqarishdan chetlashtirish, transport vositasini boshqarish huquqini beruvchi hujjatlarni olib qo'yish, shuningdek transport vositalarini saqlab turiladigan joyga qo'yish uchun olib borish;

pasport rejimi qoidalariga, shuningdek bajarilishi ustidan nazorat qilish ichki ishlar organlari zimmasiga yuklatilgan boshqa qoidalarga rioya etilishini nazorat qilish amalga oshirilayotganda fuqarolarning turar joylariga va boshqa binolariga ularning roziligi bilan soat 6-00 dan soat 22-00 gacha kirish;

jinoyatlar yoki ma'muriy huquqbazarliklar sodir etganlikda gumon qilinayotgan shaxslarni ularning organizmida alkogol, giyohvandlik vositalari, psixotrop moddalar yoki aql-iroda faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi boshqa moddalar mavjudligini aniqlash uchun tekshirishni amalga oshirish".

Xulosa o'rnida Ichki ishlar organlarining jinoyatchilikka qarshi kurashishdag'i asosiy vazifalari jamiyatning xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Ular o'z vazifalarini samarali bajarish orqali, jinoyatlarning oldini olish va jinoyatchilarni jazolashda muhim rol o'ynaydilar.

## ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabr kunitagi “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi 407-son Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021-yil 10-noyabr kunitagi “Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olishda davlat va jamoat tashkilotlari hamkorligi”ga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagи «Jamoat xavfsizligini ta’minlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida ichki ishlar organlari faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-6196-son Farmoni.